

**MAQOLA TARIXI**

Qabul qilindi: 05 – Fevral 2022  
Ma'qullandi: 10 - Fevral 2022  
Chop etildi: 15 – Fevral 2022

**KALIT SO'ZLAR**

Adabiyot, ta'lif tizimi, metodlar, interfaol usullar, xalq og'zaki ijodi, fikrlash, folklore, yoshlar ma'naviyati.

**ADABIYOT DARSLIKARIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'QITILISHI**

Tojiboyev Usmonjon Abdusalomovich

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 4-umumta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6127499>

**ANNOTATSIYA**

Jahon talablariga mos darslarni tashkil etish va uslublar yaratish, yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli, yaratuvchanlik qobiliyatli, o'tkir bilimli, keng mushohadali, buyuk davlatni barpo etish yo'lida ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir. O'zfikrini izchil, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan o'quvchini zamon talabi darajasidagi o'quvchi deb bo'lmaydi. Ma'lumki, ta'lif jarayonida turli xildagi usullar orqali o'quvchilarining bilim salohiyati va ilmiy tafakkurini rivojlantiriladi. Bu jarayonda adabiyot darslarining o'rni ahamiyati ham o'zgachadir. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodiyoti orqali o'quvchilarini tarbiya qilish, badiiy va folklor asarlarga qiziqtirish mumkin. Ushbu maqolada, adabiyot darsliklarida xalq og'zaki ijodining o'qitilishi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Adabiyot fanini o'qitishda o'quvchilarining aqliy, ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlash, ta'lif va tarbiyani, ta'lif mazmuni, o'qitish uslublari, vositalari va shakllarini uyg'unlashtirish orqali ularni rivojlantirish, mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirishga e'tibor qaratish lozim. Bularga erishish uchun adabiyotdan olib boriladigan ta'lif-tarbiya jarayonining barcha turlariga, dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar, to'garaklar, kitobxonlik uchrashuvlarining maqsadga muvofiq tashkil etilishiga bog'liqdir.

Ayniqsa, yoshlarimizning ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirish, tafakkur doiralarini boyitish muhim masaladir. Adabiyot fanini o'qitishning bosh maqsadi yoshlarimizni ijodiy fikrlashga, o'z fikrini erkin va ta'sirli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalashga, o'zbek tili shevalarini ongli farqlashga o'rgatish, shuningdek, ularning fikr doirasini kengaytirishga, Vatanimizga, milliy an'analarimizga, boy ma'naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir. Ana shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda 5-sinfdan



boshlab adabiyot fanini o'qitish oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish;

- o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ravon bayon eta olish, topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatish; o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash; nutqlarida maqol va hikmatli so'zlardan o'rinali foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish, so'zlardan maqsadli foydalana olish;

- olamni bilihda adabiyotning ahamiyatini singdirish.

Xalq og'zaki ijodini "5 muhim tashabbus" markazlarida tashkil etilgan "drama" va "kitobxonlik" to'garaklarida o'rgatar ekanmiz, ajdodlarimizning ma'naviy yetukligi, vatanparvarligi, qahramonliklari bilan tanishgan har bir yosh avlod ko'z qorachiqlarida o'zgacha nur, mehr-oqibat porlay boshlaydi. Asar qahramonlarining mard va tantiliklari, ulardagi shijoat, halollik va to'g'rilikka intilishlari hech bir o'quvchini befarq qoldirmaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish orqali, o'quvchilarda virtual tasavvurni uyg'otish yanada samaraliroq kechadi. Chunki, fan-texnika rivojlangan zamonda yashayotgan yoshlarga xalqimiz yaratgan ijod namunalarida bugungi kun yutuqlari bilan bog'lash yoshlarda katta qiziqish uyg'otibgina qolmay, ularda ajdodlarimizga nisbatan faxr tuyg'usini ham kuchaytiradi. Ota-bobolarimiz virtual tasavvurga boy bo'lganliklarini mazkur misollarda ko'rsatish mumkin. "O'zi uchar gilamlar" yoki "qanoti bor otlar" samolyotlar, kosmik kemalar; "so'zlaguvchi devorlar" telefon yoki radio, butun dunyo go'zallarini ko'rsatuvchi "sehrli uzuk" yoki "oynai

jahonlar" televizor yoki kompyuter, "suvda oqqan sandiqlar" kema va qayiqlar timsollarida ko'ra olishgan, orzu qilishgan. Asarlarida tasvirlab bergishgani o'z zamonasining buyuk ixtirolari bo'lib, ular o'quvchida xalq ogzaki ijodi bilan ko'proq tanishish ko'nikmasini shakllantiradi.

Darslarda interfaol usullardan foydalanish o'quvchining ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ayniqsa, muammoli, loyihalashtirilgan va jadallashtirilgan ta'lilmarning qo'llanishi o'quvchida yaratuvchanlik, bunyodkorlik qobiliyatlarini o'sishiga olib keladi. Predmetni o'zlashtiruvchi o'ziga nisbatan yaratuvchanlik bilan yondoshish asosida o'zlashtirib oladi. Har bir faktik materialga ijodiy va tanqidiy qaray oladi. Olinayotgan o'quv materiali unga yangicha qarash, qo'shimcha materiallarni olish, o'zlashtirishga yo'l ochadi. Ko'pincha bunday hollar o'zlashtirishga evristik yondashuvni shakllantiradi. Bu esa mutaxassislarni kelajakda olgan bilim, ko'nikmasining faqat ijrochisigina bo'lib qolmay, balki o'z kasbiy faoliyatiga ijodkorlik, yaratuvchanlik asosida qarashga olib keladi.

Didaktik o'yin texnologiyalari syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiylar va o'yin mashqlari kabi turlarga bo'linadi. Darsning bu turi folklor janrini yanada mazmunli va samarali qilib o'zlashtirishga yordam beradi. Ertak va dostonlarni sahnalashtirib o'rganish imkonini beradi. Muammoli ta'lim texnologiyalarida o'quvchi jadvallar bilan ishlab, fikrlarini isbotlab beradilar. "Aqliy hujum" darslari dasturdagi muayyan bir mavzuni o'rganishga bag'ishlanadi.



Xulosa qilib aytganda, inson faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har qanday muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. O'quv jarayonida o'quvchi mustaqil ravishda masalaning yechimiga intilsa,

o'qituvchi muammoli vaziyatni o'z vaqtida tashkil etsa, o'quvchi uchun sekin-asta ko'nikma va malakaga aylana boradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baykabilov, U. A. (2020). Ta'limdi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari. Science and Education, 1 (Special Issue 2), 51-56.
2. Jumaniyozov, S. A. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Science and Education, 1 (Special Issue 2).
3. Shaykhislamov, N. Z., & Makhmudov, K. S. (2020). Linguistics and Its Modern Types. Academic Research in Educational Sciences, 1(1), 358-361.
4. Xasanzoda, K. X. (2020). Javdat ijodida pand-axlok mavzusi va uning yosh avlod tarbiyasidagi urni. Science and Education, 1(2).